



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	73
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohibov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSİYALAR KESIMIDA)	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



MUNDARIJA

СОДЕРЖАНИЕ

CONTENTS

INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi	
IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Ollokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna	
KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich	
GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi	
ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна	
BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOXOBCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich	
Shukurova Nilufar Qahramonova	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao	
USTAMA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna	
INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbos Baxtiyor o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: AQSH MISOLIDA.....	247
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	



OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: AQSH MISOLIDA

Kurbanov Baxodir Negmatullayevich
Tashkent International University
Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola oliy ta'limni moliyalashtirishning zamonaviy xorijiy tajribasini AQSh misolida tahlil qiladi. Maqolada AQSh oliy ta'lim tizimining moliyaviy asoslari – federal va shtat darajasidagi subsidiyalari, talabalar to'lovlari, endowments (jamg'arma fondlari), tadqiqot grantlari hamda innovatsion mexanizmlar (performance-based funding va Income Share Agreements – ISA) ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda (2024–2026) kuzatilayotgan o'zgarishlar, xususan, "One Big Beautiful Bill Act" (OBBA) doirasidagi talaba kreditlari cheklavlari va daromadga asoslangan javobgarlik mexanizmlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSh tajribasi moliyalashtirishning diversifikatsiyasi, natijaga yo'naltirilgan yondashuvlar va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish orqali oliy ta'limning barqarorligi va sifatini oshirishga qaratilgan. O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim moliyalashtirishi, AQSh tajribasi, performance-based funding, Income Share Agreements, federal talaba yordami.

Abstract: This article analyzes the modern foreign experience of higher education financing using the United States as a case study. It examines the financial foundations of the U.S. higher education system, including federal and state subsidies, student tuition fees, endowments, research grants, and innovative mechanisms such as performance-based funding and Income Share Agreements (ISA). Special attention is given to recent developments observed between 2024 and 2026, particularly the student loan restrictions and income-based repayment mechanisms introduced under the «One Big Beautiful Bill Act» (OBBA). The findings indicate that the U.S. model is oriented towards enhancing the sustainability and quality of higher education through the diversification of funding sources, outcome-oriented approaches, and increased private sector participation. Practical recommendations for Uzbekistan are provided.

Keywords: higher education financing, U.S. experience, performance-based funding, Income Share Agreements, federal student aid.

Аннотация: В данной статье анализируется современный зарубежный опыт финансирования высшего образования на примере США. В статье рассматриваются финансовые основы системы высшего образования США – федеральные и региональные субсидии, плата за обучение, эндаументы (фонды целевого капитала), исследовательские гранты, а также инновационные механизмы (результативно-ориентированное финансирование и соглашения о разделе дохода – ISA). Анализируются изменения, наблюдаемые в последние годы (2024–2026), в частности, ограничения по студенческим кредитам и механизмы ответственности, основанные на доходах, в рамках «Закона об одном большом красивом билле» (OBBA). Результаты исследования показывают, что опыт США направлен на повышение устойчивости и качества высшего образования за счет диверсификации источников финансирования, ориентации на результат и усиления участия частного сектора. Даны практические рекомендации для Узбекистана.

Ключевые слова: финансирование высшего образования, опыт США, результативно-ориентированное финансирование, соглашения о разделе дохода, федеральная студенческая помощь.

KIRISH

Oliy ta'lim tizimini samarali moliyalashtirish zamonaviy davlatlarning iqtisodiy o'sish, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikni ta'minlovchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida oliy ta'limga talabning keskin o'sishi, davlat budjetlarining cheklangan resurslari hamda ta'lim xarajatlarning doimiy ravishda ko'payishi moliyalashtirish mexanizmlarini uzluksiz takomillashtirishni talab etadi. Bunday sharoitda moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish, samarali taqsimlash va natijaga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shma Shtatlar oliy ta'limni moliyalashtirish bo'yicha dunyodagi eng rivojlangan va murakkab tizimlardan biriga ega. Bu mamlakatda oliy ta'lim muassasalari moliyaviy resurslarni ko'p qirrali manbalardan jalb qilish orqali yuqori sifatli ta'lim, ilg'or ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni ta'minlaydi. AQSh tajribasini chuqur



o'rganish nafaqat nazariy jihatdan qiziqarli, balki O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ularning oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda foydali yondashuvlarni taklif etishi mumkin.

AQSh oliy ta'lim moliyalashtirish tizimining asosiy xususiyati uning yuqori darajadagi diversifikatsiyasidir. Moliyaviy resurslar quyidagi asosiy manbalardan tashkil topadi:

- Davlat va mahalliy budjetlardan ajratmalar — jamoat oliy ta'lim muassasalari uchun muhim o'rin tutadi. 2025-yil moliya yilida shtat va mahalliy hukumatlar oliy ta'limga jami 149,2 milliard dollar ajratgan bo'lib, bu ko'rsatkich inflyatsiyani hisobga olganda oldingi yillarga nisbatan o'sishni namoyon etadi. Biroq, bu mablag'lar asosan umumiy operatsion xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi va ko'pincha "base-plus" yoki formula asosidagi modellar orqali taqsimlanadi. Ba'zi shtatlarda performance-based funding (natijaga asoslangan moliyalashtirish) qo'llaniladi, ya'ni mablag' ajratish talabalar soni, bitiruv darajasi va boshqa ko'rsatkichlarga bog'liq bo'ladi.

- Talabalar to'lovlari — xususiy va jamoat muassasalari uchun asosiy daromad manbai. So'nggi yillarda shtat moliyasi cheklanganligi sababli talabalar ulushi ortgan. Masalan, to'rt yillik jamoat universitetlarida talabalar to'lovlari umumiy daromadning muhim qismini tashkil etadi. Shu bilan birga, "high tuition, high aid" modeli qo'llaniladi: yuqori to'lovlar bilan birga kam ta'minlangan talabalar uchun grant va yordam dasturlari kengaytiriladi.

- Federal hukumat yordami — talabalar uchun moliyaviy yordam va ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar shaklida taqdim etiladi. Federal grantlar oliy ta'lim muassasalarining tadqiqot xarajatlarning yarmidan ko'pini qoplaydi. Bu mexanizm universitetlarni innovatsiyalar va ilm-fan rivojiga undaydi.

- Xususiy manbalar — xayriya, endowment, korporativ hamkorlik va investorlar mablag'lari. Ayniqsa, nufuzli xususiy universitetlar uchun endowment daromdlari asosiy rol o'ynaydi va ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi.

- Boshqa manbalar — yordamchi faoliyatlar, kontrakt tadqiqotlar va xalqaro talabalar to'lovlari.

AQSh tajribasining muhim jihati — moliyalashtirishning natijaga yo'naltirilganligi va raqobat muhitidir. Universitetlar o'rtasidagi raqobat ularni sifatni oshirishga, yangi daromad manbalarini izlashga va xarajatlar samaradorligini oshirishga undaydi. Shu bilan birga, talabalar uchun keng ko'lamli moliyaviy yordam tizimi (grantlar, kreditlar, stipendiyalar) mavjud bo'lib, ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, tizimning kamchiliklari ham yo'q emas: talabalar qarzining yuqori darajasi (2025-yilda 1,8 trillion dollardan ortiq), shtat moliyasining beqarorligi va ba'zi muassasalarda xarajatlarning haddan tashqari o'sishi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Lo'ney va Yannelis o'zlarining ilmiy ishlarida ta'lim kreditlarining makroiqtisodiy ta'sirini o'rganib, kreditlarning ommaviy ravishda berilishi o'qish to'lovlarining oshishiga olib kelganligini (Bennett gipotezasi) empirik jihatdan isbotlaydi. Ular federal kreditlar limitining oshirilishi o'qish to'lovlarini o'rtacha 15–20% ga oshirganligini aniqlagan [1].

Baum va Makferson ta'lim kreditlari tizimidagi irqiy va ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni tahlil qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, qora tanli bitiruvchilarning o'rtacha qarzi oq tanli bitiruvchilarnikidan 30% ga yuqori va ular kreditlarni qaytarishda ko'proq qiyinchilikka duch keladi [2].

Chipman va Derden talqiniga ko'ra, daromadga asoslangan to'lov tizimining nazariy asoslari va amaliyoti qiyosiy tahlil qilinadi. Avstraliya, Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya tajribasini o'rganib, ular ushbu tizim ijtimoiy adolatni ta'minlashda an'anaviy kredit tizimlariga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatadi [3].

Professor A. Lyalinning xulosasiga ko'ra, oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish tizimini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar yetkazib berishning zaruriy sharti hisoblanadi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya hamda boshqa ilmiy-tadqiqot usullari keng qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'limni moliyalashtirishning ilg'or mexanizmlari Qo'shma Shtatlar tajribasining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, natijaga yo'naltirilgan va innovatsion yondashuvlarga asoslanadi. Bu mexanizmlar oliy ta'lim muassasalarini sifatni oshirishga, talabalar muvaffaqiyatini ta'minlashga va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga undaydi, shu bilan birga moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va xavf-xatlarni taqsimlash imkonini beradi.

Performance-based funding (PBF — natijaga asoslangan moliyalashtirish) mexanizmi AQSh oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladigan va doimiy rivojlanayotgan yondashuv hisoblanadi. 2020-yilga kelib taxminan 30 ta shtatda joriy etilgan bu model moliyalashtirish hajmini talabalar muvaffaqiyati ko'rsatkichlariga — bitirish da-



rajasi, ishga joylashish ko'rsatkichi, kam ta'minlangan guruhlar qamrovi va boshqa natijalarga bog'laydi. Natijada, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayonining sifatini oshirish, talabalar yordamini kuchaytirish va mehnat bozori talablariga moslashishga rag'batlantiriladi. Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotlar va tanqidchilar PBFning kam ta'minlangan yoki tarixiy jihatdan zaif universitetlar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligini qayd etadi, chunki bu muassasalar resurslar cheklanganligi sababli yuqori natijalarga erishishda qiyin ahvolda qolishi mumkin. So'nggi yillarda (2023–2025) ko'plab shtatlarda PBFning ulushi umumiy moliyalashtirishning 9–10 foizini tashkil etgan bo'lib, ba'zi shtatlarda bu ko'rsatkich ancha yuqori.

Income Share Agreements (ISA — daromad ulushi shartnomalari) esa oliy ta'lim moliyalashtirishdagi innovatsion va bozor tamoyillariga asoslangan mexanizm bo'lib, talabalar ta'lim xarajatlarini qoplash uchun oldindan mablag' oladi va kelajakdagi daromadining muayyan ulushini belgilangan muddat davomida to'laydi. Bu yondashuv xavfni talaba va investor o'rtasida taqsimlaydi: talaba past daromad holatida kamroq to'laydi, yuqori daromad holatida esa ko'proq qaytaradi. Shu orqali oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirishga undaladi, chunki ularning daromadi bitiruvchilarning muvaffaqiyatiga bog'liq bo'ladi. 2023–2025-yillarda bir qator universitetlar va kasbiy ta'lim dasturlari tomonidan faol joriy etilgan. Talabalarni himoya qilish maqsadida federal va shtat darajasida tegishli qonun loyihalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular haddan tashqari yuklamalarni cheklash va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan. ISAning afzalligi shundaki, u an'anaviy talaba kreditlaridan farqli o'laroq, talabalar uchun moliyaviy xavfni pasaytiradi va institutlarni sifatli ta'lim berishga rag'batlantiradi (1-jadval).

1-jadval.

AQSHdagi Oliy ta'lim muassasalarining turlari va ularning xususiyatlari¹

Turi	Soni (taxminan)	Moliyalashtirish xususiyati
Davlat universitetlari (State universities)	650	Asosan shtat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi
Davlat kollejlari (Community colleges)	950	Mahalliy va shtat budjetlari
Xususiy notijorat universitetlari	1600	O'qish to'lovlari va endowment
Xususiy tijorat kollejlari (For-profit)	800	Investor kapitali va o'qish to'lovlari

2025–2026-yillardagi muhim o'zgarishlar oliy ta'lim moliyalashtirish tizimida investitsiya daromadi tamoyilini yanada kuchaytirdi. 2025-yil iyul oyida qabul qilingan talaba kreditlari limitlarini qattiqlashtirdi, Graduate PLUS dasturini 2026-yil 1-iyuldan boshlab bosqichma-bosqich bekor qildi va daromad darajasiga asoslangan yangi javobgarlik mexanizmini joriy etdi. Ushbu o'zgarishlar natijasida past daromadli bitiruvchilar uchun ba'zi dasturlar federal yordamdan mahrum bo'lishi mumkin. Asosiy maqsad — oliy ta'limning iqtisodiy samaradorligini oshirish, talabalar qarz yukini kamaytirish va muassasalarni yuqori ROIga ega dasturlarni rivojlantirishga undashdir. Bu siyosat talabalar va davlat budjeti uchun uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, shu bilan birga oliy ta'limning ijtimoiy tenglik va sifat muammolarini hal etishda muayyan muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Har bir turdagi muassasaning moliyalashtirish modeli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, jamoat kollejlari asosan ochiq kirish siyosatiga ega va ularning moliyalashtirilishida shtat va mahalliy budjetlarning ulushi yuqori (50–70% gacha). Xususiy notijorat universitetlari esa asosan o'qish to'lovlari (40–60%) va endowment daromadlariga (10–30%) tayanadi.

Bundan tashqari, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasida AQShning eng keng tarqalgan va samarali moliyalashtirish hamda hamkorlik mexanizmlaridan biri — Cooperative Research and Development Agreements, ya'ni hamkorlikdagi tadqiqot va rivojlantirish shartnomalari hisoblanadi. Ushbu mexanizm federal laboratoriyalar, universitetlar va xususiy sektor o'rtasidagi birgalikdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asos bo'lib, texnologiyalarni tezroq tijoratlashtirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va milliy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

CRADAlarning huquqiy asosi 1980-yilda qabul qilingan Stevenson-Wydler Technology Innovation Act va 1986-yildagi Federal Technology Transfer Actga borib taqaladi. Ushbu qonun hujjatlari federal laboratoriyalarga xususiy sektor, universitetlar, notijorat tashkilotlar va mahalliy hukumatlar bilan hamkorlik qilish huquqini beradi.

1 Manba: muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Qo'shma Shtatlardagi oliy ta'limni moliyalashtirish tizimining asosiy modellari, mexanizmlari va ularning samaradorligi tahlil qilindi. AQSh tajribasining asosiy xususiyati – moliyalashtirish manbalarining yuqori darajadagi diversifikatsiyasi (davlat budjeti, o'qish to'lovlari, endowment jamg'armalari, xususiy xayriya va ilmiy grantlar) hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali o'zaro hamkorlikdir.

Endowment jamg'armalari yirik universitetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, biroq ularning taqsimlanishidagi tengsizlik "boylar boyiydi" effektini keltirib chiqaradi. Daromadga asoslangan ta'lim kreditlari tizimi (income-contingent loans) ijtimoiy adolatni ta'minlash va kreditlarning qaytish darajasini oshirishda samarali mexanizm hisoblanadi. Natijaga asoslangan moliyalashtirish (PBF) resurslarni samarali taqsimlashga olib kelsa-da, qisqa muddatli natijalarga haddan ziyod e'tibor qaratish va ijtimoiy adolatga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini o'z ichiga oladi.

AQSh tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash bosqichma-bosqich va moslashtirilgan shaklda amalga oshirilishi lozim. Xususan, endowment jamg'armalari to'g'risidagi qonunchilikni ishlab chiqish, daromadga asoslangan ta'lim kreditlari mexanizmini joriy etish hamda natijaga asoslangan moliyalashtirish elementlarini pilot rejimda sinovdan o'tkazish tavsiya etiladi. Biroq, institutsional, iqtisodiy va madaniy cheklolarni hisobga olish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Looney, Adam & Yannelis, Constantine. (2021). The Consequences of Student Loan Credit Expansions: Evidence from Three Decades of Default Cycles. *Journal of Financial Economics*. 143. 10.1016/j.jfineco.2021.06.013
2. Baum, Sandy & McPherson, Michael. (2019). The Human Factor: The Promise & Limits of Online Education. *Daedalus*. 148. 235-254. 10.1162/daed_a_01769.
3. Bruce Chapman & Lorraine Dearden, 2022. "Income-contingent loans in higher education financing," *World of Labour, LISER*, pages 227-227, October.
4. Лялин А.М. 2016 Подготовка кадров для инновационной экономики. Инновационное развитие: экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями. Монография. – М.: ИНФРА-М, С. 388.
5. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 490 p.
6. World Bank. Higher Education Finance for Development: Options and Challenges. – Washington DC: World Bank Publications, 2020. – 210 p.
7. Heller D.E. The States and Public Higher Education Policy: Affordability, Access, and Accountability. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2001. – 304 p.
8. Altbach P.G., Salmi J. The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities. – Washington DC: World Bank Publications, 2011. – 346 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>